

## FRAZEOLOGIZMLAR NUTQIY TA`SIRCHAN -YARATUVCHI VOSITA

Mirzakarimova Z.D.

TDTU OF F.f.n., dotsent

Abduxoshimov Jo`rabek

12-22 XT guruhi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7984305>

**Annotatsiya:** Bu maqolada frazeologik birliklarning badiiy adabiyotdagi o`rni haqida ma`limotlar keltirilgan.

**Kalit so`zlar:** frazeologik birlik, lug`aviy birlik, emotsional -ekspressiv ma`no, obrazlilik, ifodalilik, epitet, metonimiya, o`xshatish, qiyoslash, jonlantirish.

Frazeologiya tilshunoslikning frazeologik birliklarini o`rganuvchi sohasidir.

Lug`at tarkibida til birligi so`z bo`lsa, frazeologiya tarkibida frazeologizm til birligidir. Tilning lug`at boyligi leksika va frazeologiyadan iboratdir. So`z ham, frazeologizm ham lug`aviy birlik hisoblanib, ko`proq so`zlashuv uslubiga xos, nutqiy ta`sirchanlikni yaratuvchi vosita.

Frazeologizmlarning tarkibida nechta so`z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma`no bilan birlashadi va emotsional-ekspressiv ma`noni ifodalaydi. Frazeologizmlar badiiy adabiyotda obrazli va ta`sirchan vosita sifatida ko`p qo`llanadi:

Xushyor boq, to foniy umr kechadi,

Tegrangda turfa xil toshlar uchadi.

Biri qora hasad yo g`araz toshi

Biri yovuz tuhmat yo maraz toshi...

Ular sabr kosang to`ldirmoq bo`lar,

Ular umr guling so`ldirmoq bo`lar.

(A.Oripov)

Obrazlilik ko`pgina frazeologizmlarning asosiy xususiyatidir. O`zbek tilida obrazlilik, ifodalilik, asosan, epitet, metonimiya, o`xshatish, jonlantirish, qiyoslashlar orqali namoyon bo`ladi. Bunda ikki predmet yoki hodisa ma`lum bir belgi asosida bir-biriga qiyoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgi, xususiyati bo`rttirib ko`rsatilib beriladi. Bu qiyoslash frazeologik butunlikda ko`chma ma`no orqali beriladi.

Bunday frazeologiyada nutqiy ta`sirchanlik kuchli bo`ladi.

Obrazlilik, ifodalilik frazeologizmlarning asosiy xususiyati bo`lsa, ekspressivlik - emotsionallik barcha frazeologizmlar uchun bir xil emas. Ba`zi frazeologik iboralarda ekspressiv - emotsionallik kuchli bo`lsa (ninaday narsani tuyaday qilmoq, tolqon yeb suvga jo`natmoq, ammaning buzog`iday, o`lganning ustiga tepgan va boshqalar), ba`zilarida esa neytral (dili xufton bo`ldi, ichi qora topishmoq) bor bo`ladi.

Og`zaki nutqda frazeologizmining xarakteri tomonlaridan biri yorqin ekspressiv bo`yoqqa egaligi bo`lib, ular xilma-xil kinoya, hazil, biror xususiyatga ijobiy yo salbiy baho berish kabi ma`nolar ifodalaydi. Baholash asosan ikki xil: ijobiy va salbiy bo`lib, narsa hodisa yoki shaxslarga xos muhim bo`lgan belgi va xususiyatlar asos qilib olinadi. Ijobiy xususiyatlarni ifodalash salbiy xususiyatlarni ifodalashga qaraganda nisbatan kamroq qo`llaniladi. Bu tabiiy hol.

Chunki, birinchidan, iboralarning asosida nutqning ifodalanganligi, emosionallikni va jonliligini oshirish, salbiy xarakterlarni, xislatlarni yorqinroq ifodalash yotsa, ikkinchidan, ijobiy xislatlardan ko'ra salbiy xislatlar tezroq ko'zga tashlanadi.

Jonli nutqda suhbat mavzusi tez-tez o'zgarib turadi. Shunga ko'ra, so'zlovchi neytral nutqdan birdaniga ekspressiv bo'yoqlarga ega bo'lgan nutqqa o'tadi. Vaziyatga qarab, fikrni aniq va jonli ifodalash uchun obrazli vosita hisoblangan frazeologizmlardan foydalaniladi.

Frazeologizm til birligi sifatida murakkabligi, uning ma'nan yaxshiligi bilan alohida shakllangan shakli o'rtasidagi ziddiyat, iboradagi dolzarb va etimologik ma'nolar nomuvofiqligi uni nutq jarayonida qo'llashni qiyinlashtiradi. Bu esa o'z navbatida frazeologizmlarni nutqda qo'llash me'yorlarini puxta egallashni taqoza qiladi.

Adabiy tilda so'zlashuv uslubiga xoslangan qitiq patiday yumshoq iborasi mavjud. Bu ibora tarkibidagi pat so'zi ma'no jihatidan parchaga yaqin turadi. Shundan kelib chiqib, bu iboraning badiiy nutq uslubida ba'zan qo'llaniladigan qitiq patiday yumshoq shaklini uning varianti deb hisoblash mumkin. Masalan: Esh polvonni o'rtaga solgani Azizaxonning qitiq patini yulgandek bo'lgandi. (Said Ahmad „Ufq“). Bunday o'zgarish adabiy til me'yoriga zid bo'lmagani uchun o'quvchi uni tabiiydek qabul qiladi.

Til birliklarini o'zaro aloqadorlikda o'rganish, biridan ikkinchisining qay tarzda farqlanishini o'rganish hozirgi tilshunoslikda yetakchi mavqega ega bo'lib, bu yo'nalish sistemali tilshunoslik deb ataladi. Shu ma'noda frazeologizmlarni boshqa til birliklari bilan aloqalikda o'rganish amaliy va nazariy ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlarning shakllanishiga nolisoniy va lisoniy omillar ta'sir etadi. Aksariyat frazeologizmlar o'zbek xalqining turmush mavqeyidan kelib chiqadi va shu turmush tarzlarini obrazli ifodalashga xizmat qiladi. Masalan: „po'stagini qoqmoq“, „sovuniga kir yuvmaslik“, „chiroq yoqib o'tirmoq“, „chig'iriqdan o'tmoq“, „ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq“ kabilar kundalik turmushidagi uy-ro'zg'or yumushlarining mantiqiy asosidan kelib chiqib umumlashadi va umumtil miqyosida voqe bo'ladi. „Po'stagini qoqmoq“ frazeologizmning mantiqiy asosi shu voqealilikni obrazli ifodalash asosida shakllanib „ayovsiz tanqid qilmoq“ ma'nosini anglatadi.

Bu nolisoniy omil sanaladi. Bu so'z birikmasining asl ma'nosi uy-ro'zg'or buyumi bo'lgan po'stakni changdan tozalash demakdir. Ana shu erkin bog'lanmadagi „po'stakni changdan tozalash“ ma'nosi keyingi rejaga o'tib, bu birikmadagi shaxsga nisbatan qo'llanilishi asosida yuzaga kelgan „ayovsiz tanqid qilmoq“ ma'nosi birinchi rejaga o'tadi. Bu yangi ma'no frazeologizm tarkibidagi so'zlarning umumiy yig'indisidan kelib chiqmay, ular asosida yuzaga kelgan ustama, ko'chma ma'no sifatida shakllanadi. Frazeologizmlarning bunday shakllanishi uchun til hodisalari o'zaro aloqaga kiradi, bir til hodisasi ikkinchisidan ishtirokini taqoza qiladi. Bu esa lisoniy omildir.

Xullas, frazeologizmlar murakkab til hodisasi bo'lib, ularni o'rganishga alohida e'tibor bermoq zarur. O'qituvchi nutqning frazeologizmlarga boy bo'lishi, o'quvchilarning lug'at boyligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi.

### References:

1. Abdullayev A. O`zbek tilida ekspressivlik ifodalanishining sintaktik usuli.-Toshkent: Fan, 1987.-B.69.
2. Mirzakarimova Z.D.Olmosh turkumi ustida ishlashda o`quvchilar nutqini boyitish//TVDPI professor-o`qituvchilarining an`anaviy-ilmiy,nazariy va amaliy-uslubiy anjumani ma`ruzalari.-Toshkent,2010.-B.47-49.
3. Mirtojiyev M.M.Hozirgi o`zbek adabiy tili.1-jild.- Toshkent: Universitet, 2004.-B.181.
4. Qurbonova M.M.Hozirgi zamon o`zbek tili.-Toshkent,2002.-B.12.
5. Qosimova M.N.,Mirzakarimova Z.D.Linguistic and methodological bases of simple sentences in uzbek and german languages//European multidisciplinary journal of modern science.-P.571-74.



INNOVATIVE  
ACADEMY